TASDIQLAYMAN
“Kiberxavfsizlik markazi” DUK
direktori

_____ O.N.Mirzayev
“____” _____2025-yil

Veb-ilovalarni “Firesight” himoya tizimiga ulash xizmatini ko‘rsatish reglamenti

Xizmatning tavsifi (pasporti).

1.1. Xizmatning nomi.

Veb-ilovalarni “Firesight” himoya tizimiga ulash. Bunda:

a) Cheklangan fayllarga ruxsatsiz kirishga urinish (Local File Inclusion);

b) URL-manzilda IP-manzillarni qo‘llagan holda masofadan turib hujum qilish (Remote File Inclusion);

d) Ixtiyoriy kodni masofadan turib bajarish (Remote Code Execution);

e) PHP in’eksiya hujumi (PHP Code Injection);

f) Zararli kodlarni yuborish (Cross Site Scripting);

g) SQL-inyeksiya (SQL Injection);

h) Java inyeksiya hujumi (Java Code Injection);

i) Skaner va botlarni aniqlash (Scanner/Bot Detection).

1.2. Xizmat natijasi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar axborot tizimlari va resurslariga uyushtiriladigan kiberhujumlarni real vaqt rejimida aniqlash (monitoring) va bartaraf etish hamda ularning kiberxavfsizlik darajasini oshirish.

1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot nomi va manzili.

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK.

Manzil: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi 20 uy.

1.4. Xizmat ko‘rsatishning huquqiy asosi.

O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risada”gi PQ-4751-sonli Qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar.

Davlat organlari va tashkilotlari, yuridik shaxslar.

1.6. Xizmat ko‘rsatish tartibi va muddati.

Xizmat ushbu Reglamentning ilovasiga muvofiq sxema shaklida taqdim etiladi, shuningdek quyidagi bandlarni o‘z ichiga oladi:

- “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida xizmatni xarid qilish yoki buyurtmachining ariza shaklini to‘ldirish va bajaruvchining manziliga yuborish;

- Buyurtmachi va Bajaruvchi o‘rtasidagi xizmat ko‘rsatish shartnomasini imzolash;

-xizmat uchun to‘lov bajaruvchining hisob raqamiga kelib tushganidan va buyurtmachi bajaruvchiga axborot resursning SSL xavfsizlik sertifikatini (buyurtmachi bajaruvchi tomonidan taqdim etiladigan vaqtinchalik SSL xavfsizlik sertifikatidan foydalanishi mumkin) taqdim etgandan so‘ng xizmat ko‘rsatish boshlanadi;

-bajaruvchi buyurtmachining shartnomada ko‘rsatilgan axborot resursini “Firesight” himoya tizimiga ulashni va 1 yil mobaynida (shartnoma muddatida) 24/7 rejimida muntazam monitoring qilib borilishini ta’minlashi;

-amalga oshirilgan va bartaraf etilgan kiberhujumlar bo‘yicha hisobot elektron ko‘rinishda, buyurtmachining elektron pochta manziliga yuborish;

1.7. Arizani ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asoslar

-xizmat uchun murojaat qilgan shaxs uni olish huquqi yoki boshqa shaxs nomidan harakat qilish huquqiga ega emasligi;

-hujjatlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi (to‘liq bo‘lmagan ro‘yxat, noto‘g‘ri to‘ldirish);

-taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlarning mavjudligi;

-xizmat olish uchun murojaat qilgan shaxsning xizmat ko‘rsatuvchi bajaruvchining talablariga mos kelmasligi.

1.8. So‘rov asosida ma’lumot almashish.

Tomonlar xizmatdan foydalanish va xizmat bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar, to‘lov rekvizitlari va talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxatini taqdim etish to‘g‘risidagi har qanday savollar bo‘yicha soat 9:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishlari mumkin.

Elektron pochta orqali (info@uzcert.uz): 24/7 rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni, masalan, to‘lov uchun muassasa tafsilotlarini aniq uzatishni talab qilmaydigan xizmatni olishning har qanday masalalari bo‘yicha og‘zaki maslahat olishlari mumkin.

Xizmat yuzasidan javobgarlik.

Mazkur himoya tizimi faqatgina tomonlar o‘rtasidagi imzolangan shartnomada belgilangan kiberhujumlarni bartaraf etadi va veb-resursning kiberxavfsizlik darajasini oshiradi, biroq kiberxavfsizlik choralarini to‘liq ta’minlamaydi.

Ushbu himoya tizimiga ulangan veb-resurslarda kiberhodisa ro‘y bergan taqdirda, aniqlangan kiberhodisa Bajaruvchi tomonidan belgilangan tartibda tekshiriladi biroq, Bajaruvchi javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Tekshiruv natijalari bo‘yicha ma’lumotnoma va kiberhodisaning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tegishli tavsiyalar Buyurtmachiga taqdim etiladi.

Sifatsiz xizmat ustidan shikoyat qilish.

Xizmatdan foydalanuvchi ko‘rsatilgan xizmat natijalaridan norozilik sabablarini ko‘rsatgan holda bajaruvchiga rasmiy xat bilan murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Veb-ilovalarni “Firesight” himoya tizimiga ulash xizmatini ko‘rsatish Reglamentiga ilova

Veb-ilovalarni “Firesight” himoya tizimiga ulash xizmatini ko‘rsatish tartibi

Qisqartmalar:

Bajaruvchi –«Kiberxavfsizlik markazi» DUK
Buyurtmachi – davlat organi yoki yuridik shaxslar

Bosqichlar	Ishtirokchilar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Buyurtmachi	Markazga yozma murojaat yoki veb-saytdagi forma orqali	O‘z xohishiga ko‘ra
2- bosqich	Buyurtmachi	Shartnomani imzolash va xizmat narxini to`lash	10 ish kuni ichida
3- bosqich	Buyurtmachi	Axborot tizim yoki resursni SSL xavfsizlik sertifikatini taqdim qilish	3 ish kuni ichida
4- bosqich	Bajaruvchi	Veb-resursni “Firesight” himoya tizimigа ulashni ta’minlash	1 yil davomida
5- bosqich	Buyurtmachi	Ko‘rsatilgan xizmat natijalarini qabul qilish	Har oyining 25 sanasi